
**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI
O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH****N.U.Bo‘ronova***Buxoro davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang’ich ta’lim) magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta’lim maktablarida "Texnologiya" darslarida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va shu bilan birga dars samaradorligini oshirish yo'llari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: talim, interfaol metodlar, texnologiya fani, „Aqliy hujum“, „Klaster“

Аннотация: В данной статье анализируется важность использования интерактивных методов на уроках «Технологии» в общеобразовательных школах, а также пути повышения эффективности урока.

Ключевые слова: образование, интерактивные методы, технологическая наука, «Мозговой штурм», «Кластер».

Abstract: This article analyzes the importance of using interactive methods in "Technology" classes in secondary schools, as well as ways to improve the effectiveness of the lesson.

Key words: education, interactive methods, technological science, "Brainstorming", "Cluster"

Har bir zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishini unutmash lozim. U o‘z o‘quvchilarini har bir fanga qiziqтира olishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi kerak. Albatta buning uchun yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham u bir nechta yangicha ta’lim usullarini yaxshi o‘rgangan bo‘lishi lozim. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, o‘quvchi bilimni nazorat qilish hamda baholash, o‘qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o‘qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo‘lgan ayrim pedagogik vositalar ta’kidlovchi savollar bunda o‘quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o‘xshashlik, farqini toppish va eng asosiysi ularni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish singari xususiyatlarini rivojlantiruvchi muhitni yaratadi.

Savollar berish bilan birgalikda o‘quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Interfaol metodlar deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchilar bo‘ladigan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. O‘quvchilarga biz savol berish bilan bir qatorda ularning qaysidir bir kasbga qiziqishini va eng asosiysi o‘z fikrlarini mustaqil tarzda bayon etishlariga biz imkon yaratib beramiz. Ammo, o‘qituvchi har bir o‘quvchining fikrini to‘g‘ri qabul qilib, ularga eng qulay va oson yo‘lni ko‘rsatishi kerak.

“Aqliy hujum metodi” – biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodning og‘zaki va yozma turlari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklda esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) mahkamlanadi.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) muammoli savol briladi;
- b) fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi;
- c) fikr va g‘oyalar guruhlanadi;
- d) aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari juda ham ko‘p. Bunda o‘quvchilarning har birinig berilgan savolga fikrini bilib olish, fikrlash qobiliyatlarini va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan biz texnologiya darsida “Uy jihozlari” kompozitsiyasini yasash mavzusini o‘tganimizda, oddiygina “Uy jihozlari kundalik hayotimizda nima uchun kerak?” degan savolni berganimizda o‘quvchilarning bu haqidagi fikrlarini bilib olishimiz va tushuncha paydo bo‘lgandan keyin uy jihozlari shaklini yasashimiz mumkin. Bunda o‘quvchilarning har biri qatnashadi va o‘z fikrini bildiradi.

“Klaster” interfaol metodi – ta’lim oluvchini mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga asoslangan. Fikrlashning tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va aniq ravishda ma’lum ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlanishlariga o‘rgatadi. Mazkur interfaol metod bir mavzuni chuqur o‘rganishdan avval ta’lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni


mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda ta’lim oluvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“Klaster” metodi yordamida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilar guruhlariga bo‘linadilar va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo‘yicha qanday tushunchalarni o‘zlashtirgan bo‘lsalar, ularni qog‘ozga yozish vazifasi topshiriladi.

2. Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga ahamiyat bermaslik, nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni yozib berish talab etiladi.

3. Yozuvning texnik (orfografik, mantiqiy va h.k.) jihatlariga e’tibor berilmaydi. Fikrlar tugagandan keyin guruh a’zolari tushunchalarni mantiqiy jihatdan bir-birlariga bog‘lab chiqadilar.



Ushbu “Klaster” da o‘quvchilar Applikasiya haqida o‘rgangan bilimlarini yozadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. О.Н. Мухидова Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя // Вестник науки и образования 97 (№ 19 (97)).
2. О.Н. Мухидова Электронное обучение в высшем образовании // Вестник магистратуры, 1-5 (100) 2020 С 43-44
3. Ma’rifat.uz